

10-sinf 1-qism **Alisher Navoiy**

1. Qaysi buyuk temuriyzoda qurdirgan kutubxona salmog`I va boyligiga ko`ra o`z zamonasida tengsiz bo`lgan?

- a) Mirzo Ulug`bek
- b) Shohrux Mirzo
- c) Husayn Bayqaro
- d) Abulqosim Bobur

2. Kimning davrida Hirot shahri gullab yashnaydi?

- a) Shohrux Mirzo
- b) Abu Said
- c) Abulqosim Bobur
- d) Husayn Bayqaro

3. Alisher Navoiy qaysi asarida 459ta yozuvchi va ijodkorlar haqida ma`lumotlar jamlagan?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Mezon ul-avzon
- d) Nazm ul-javohir

4. "Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohrux mirzo podshohligi davridan boshlab,shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko`plarning ba`zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi".Ushbu jumla qaysi asar haqida va kimning tilidan aytilgan?

- a) Majolis un-nafois; Xondamir
- b) Nasoyim ul-muhabbat; Xondamir
- c) Majolis un-nafois; Rashidiy
- d) Nazm ul-javohir;Abdurahmon Jomiy

5. "Alisherbek naziri yo`q kishi erdi.Turkiy til bila to she`r aytiburlar ,hech kim oncha ko`p va xo`p aytqon emas."Ushbu ta`rifni Alisher Navoiyga nisbatan qaysi ijodkor qo`llagan?

- a) Rashidiy
- b) Abdurahmon Jomiy
- c) Xondamir
- d) Zahiriddin Muhammad Bobur

6. "Xazoyin ul-maoniy"dagi devonlarni tartib bilan joylashtiring:

1.Badoyi ul-vasat 2.G`aroyib us-sig`ar 3.Favoyid ul-kibar

4.Navodir ush-shabob

- a) 1;2;3;4
- b) 2;1;4;3
- c) 2;4;1;3
- d) 4;3;2;1

7. Alisher Navoiy nechta masnaviy kitob yozgan?

- a) 5
- b) 8
- c) 12
- d) 6

8. Alisher Navoiyning 8 majlisdan iborat bo`lgan asari qaysi?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Mezon ul-avzon
- d) Nazm ul-javohir

9. Alisher Navoiy aruz ilmini kimdan o`rgangan?

- a) Abdurahmon Jomiydan

b) Abulays Samarqandiydan

c) Darvesh Mansurdan

d) Hasan Ardasherdan

10. "Majolis un-nafois"asarining yettinchi majlisi kimlarga bag`ishlangan?

- a) Temur va Temuriylarga
- b) Husayn Bayqaroga
- c) Sharafiddin Ali Yazdiyga
- d) Hirot xalqiga

11. Asarning nechanchi majlisi Husayn Bayqaroga atalgan?

- a) Oltinchi
- b) Yettinchi
- c) To`rtinchi
- d) Sakkizinchi

12. "Xuroson mulkining rangin fozili erdi ,ko`p ulum va fununda mohir erdi.Sanoe` va aruz fanida barcha el ani musallam tutur erdi".Ushbu ta`rif kim haqida?

- a) Alisher Navoiy
- b) Rashidiy
- c) Darvesh Mansur
- d) Yahyo Sebak

13. Alisher Navoiy Ali Yazdiy bilan qayerda ko`rishgan va bu haqda asarning nechanchi majlisida aytib o`tadi?

- a) Iroqning Taft shahrida; uchinchi majlisda
- b) Iroqning Najaf shahrida;ikkinchi majlisda
- c) Iroqning Taft shahrida; ikkinchi majlisda
- d) Iroqning Najaf shahrida uchinchi majlisda

14. "Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohrux mirzo podshohligi davridan boshlab,shu zamonga qadar yer yuzini ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko`plarning ba`zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi".Ushbu jumla qaysi asardan olingan?

- a) Habib us-siyar
- b) Makorim ul-axloq
- c) Ravzat us-safo
- d) Tarixi Jahonkusho

15. Navoiyning aruzga oid asari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Mezon ul-avzon
- d) Nazm ul-javohir

16. Alisher Navoiyning adabiyot nazirasi,she`r san`atlari ,madaniy hayot voqealari o`ziga xos tarzda aks etgan asari qaysi?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Mezon ul-avzon
- d) Nazm ul-javohir

17. Alisher Navoiy 1498-yilda qaysi mashhur asarini yaratadi?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Mezon ul-avzon
- d) Muhokamat ul-lug`atayn

18. Navoiyning muammo haqida yozgan asari qaysi?

- a) Munshaot
b) Hayrat ul-abror
c) Mufradot
d) Mezon ul-avzon
19. Noto`g`ri hukmni toping:
a) Navoiy arab,fors,hindiy tillari qatorida o`zbek tilining ham eng qadimiy tillaridan biri ekanligini alohida ta`kidlaydi
b) Adib turkiy tildagi yuzta fe`lni keltirib,ularning ma`nosini anglatadigan so`zlarning arab tiliida mavjud emasligini ko`rsatadi
c) "Majolis un-nafois" asari o`zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba hisoblanadi
d) Qabog` so`zining ma`nosi ko`z va qoshlar orasini bildiradi
20. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida qaysi she`riy shakl va janrlar haqida ma`lumot beradi?
a) tuyuq,qo`shiq,chinga,muhabbatnoma,aruzvoriy,g`azal,turkiy
b) tuyuq,qo`shiq,chinga,muhabbatnoma,masnaviy,aruzvoriy,turkiy
c) tuyuq,qo`shiq,chinga,fard,muhabbatnoma,aruzvoriy,turkiy
d) tuyuq,qo`shiq,chinga,muhabbatnoma,aruzvoriy,turkiy
21. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining uchinchi qismi kimlar haqida?
a) yozuvchilar
b) hakimlar
c) obidlar
d) payg`ambarlar
22. Moslashtiring:
1.aftol 2.obid 3.chinga 4.arjumand 5.chashm 6.sipand
a.isiriq b.aziz,qadrli c.bola d.yor-yor e.ko`z f.Allohga toat-ibodat qiluvchi
a) 1-a;2-f;3-d;4-b;5-e;6-c
b) 1-c;2-f;3-d;4-b;5-e;6-a
c) 1-c;2-f;3-b;4-d;5-e;6-a
d) 1-e;2-f;3-b;4-d;5-c;6-a
23. "Umr qisqadir,ish uzun.Oqil uldurkim,bu qisqa umrni bir nimaga saf qilg`aykim,zaruratroqdur,ya`ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi ".Ushbu fikrlar kimga tegishli?
a) Buqrot
b) Aflotun
c) Rashidiy
d) Yahyo Sebak
24. Iskandarning vaziri,Aflotunning shogirdi kim?
a) Buzurjmehr
b) Jomosb
c) Aristotilis
d) Buqrot
25. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining nechanchi qismida Pifagor,Gippokrat,Ptolomey,Buqrot,Suqrot haqida ma`lumot berilgan?
a) 3
b) 4
c) 5
d) 6
26. Qaysi asarda tarixiy shaxslarning ,hakimlarning hikmatlaridan namunalar keltiriladi?
a) Tarixi anbiyo va hukamo
b) Mahbub ul-qulub
c) Majolis un-nafois
d) Tarixi muluki ajam
27. Kim podshohni rad(soy,daryo)ga o`xshatgan?
a) Buqrot
b) Navoiy
c) Aristotilis
d) Iskandar
28. Alisher Navoiyning diniy mavzudagi asarlarini belgilang?
1. Arba`in 2.Munojot 3.Mahbub ul-qulub 4.Vaqfiya 5.Siroj ul-muslimin
a) 1;2;4;5
b) 1;2;5
c) 1;3;4
d) 1;3;5
29. Navoiyning tasavvuf tarixiga bag`ishlangan asari qaysi?
a) Nasoyim ul-muhabbat
b) Mahbub ul-qulub
c) Majolis un-nafois
d) Tarixi muluki ajam
30. "Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" asari qaysi asarning erkin tarjimasini hisoblanadi?
a) Xasmat ul-mutahayyirin
b) Mahbub ul-qulub
c) Silsilat uz-zahab
d) Nafahot ul-unsmin hazarot ul-quds
31. "Pok zotlar huzuridan esgan do`stlikning xushbo`y islariqaysi javobda to`g`ri tarjima qilingan?"
a) Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul-futuvvat
b) Nafahot ul-unsmin hazarot ul-quds
c) Silsilat uz-zahab
d) Xasmat ul-mutahayyirin
32. Navoiyning "Munshaot" asaridagi qaysi maktublar o`zining yuksak saviyasi,go`zal badiiyati va katta tarbiyaviy jihatlari bilan e`tiborli?
a) Husayn Bayqaroning katta o`g`li Baddiuzmonga va o`g`ilxoni Mir Ismoilga yozilgan maktublar
b) Husayn Bayqaroning katta o`g`li Muzaffar mirzoga va o`g`ilxoni Mir Ibrohimga yozilgan maktublar
c) Husayn Bayqaroning katta o`g`li Muzaffar mirzoga va o`g`ilxoni Mir Ismoilga yozilgan maktublar
d) Husayn Bayqaroning katta o`g`li Baddiuzmonga va o`g`ilxoni Mir Ibrohimga yozilgan maktublar
33. "Ko`zung ne balo qaro bo`lubtur" g`azali necha bayt?
a) 7
b) 5
c) 9
d) 12
34. "Meni men istagan" ga`azalining vazni qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
a) Hazaji musammani solim
b) Hazaji musaddasi axrabi maqbuhi mahzuf
c) Ramali musammani maqsur

- d) Hazaji musaddasi mahzuf
35. "Ko`zung ne balo qaro bo`lubtur" g`azali qaysi vaznda yozilgan?
- a) Hazaji musammani solim
b) Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
c) Ramali musammani maqsur
d) Hazaji musaddasi mahzuf
36. "Ey sabo" g`azali necha bayt?
- a) 8
b) 9
c) 7
d) 12
37. "Ey sabo" g`azali qaysi vaznda yozilgan?
- a) Hazaji musammani solim
b) Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf
c) Ramali musammani maqsur
d) Hazaji musaddasi mahzuf
38. Navoiyning qaysi g`azali boshdan oyoq tardi aks san`atiga tayanadi?
- a) "Ey sabo" g`azali
b) "Ko`zung ne balo qaro bo`lubtur" g`azali
c) "Meni men istagan" ga`azali
d) "Kelmadi" radifli g`azali
39. "To tuzdi Navoyi oyati ishq, Ishq ahli aro navo bo`lubtur". Ushbu baytda qanday she`riy san`atlar qo`llangan?
- a) Ishtiyoq, talmeh, tasbe
b) Ishtiyoq, tardi aks, tasbe
c) Ishtiyoq, tanosub, tasbe
d) Ishtiyoq, tardi aks, ta`did
40. "Boqiy topar ulki, bo`ldi foniy, Rahrav g`a baqo fano bo`lubtur". Ushbu baytda tazod san`atini yuzaga chiqargan so`zlar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
- a) Ulki va baqo
b) Boqiy va rahrav
c) Boqiy va fano
d) Boqiy va foniy
41. Rahrav so`zining ma`nosi nima?
- a) Yo`l ko`rsatuvchi
b) Yo`l yuruvchi
c) Yo`l tozalovchi
d) Yo`l quruvchi
42. Alisher Navoiyning kelib chiqishi baxshilarga borib taqalishi haqidagi fikrlar kimga tegishli?
- a) Rashidiy
b) Jomiy
c) Dehlaviy
d) Ganjaviy
43. Alisher Navoiyning ayrim hadisi shariflarning shery talqini bo`lgan asari qaysi?
- a) Vaqfiya
b) Mahbub ul-qulub
c) Nazm ul-javohir
d) Xamsat ul-mutahayyirin
44. "Ko`zung ne qaro balo bo`lubtur" g`azalining taqte`si qanday?
- a) -- V/V - V -/ V --
b) - V - -/ - V - -/ - V - / - V -
c) V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -
d) - V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -
45. Navoiyning falsafiy didaktik qarashlari aks etgan g`azali qaysi?
- a) "Ey sabo" g`azali
b) "Ko`zung ne balo qaro bo`lubtur" g`azali
c) "Meni men istagan" ga`azali
d) "Kelmadi" radifli g`azali
46. "Igna bila tog`ni qozmoq takabburni ko`ngullardin chiqarmoqdin osonroqdur". Ushbu jumla kimning tilidan aytilgan?
- a) Alisher Navoiy
b) Abuhoshim So`fiy
c) Yahyo Sebak
d) Abu Sulaymon Doroniy
47. "Hech kim turkiy she`rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan". Ushbu ta`rifni Alisher Navoiyga nisbatan qo`llagan ijodkor kim?
- a) Zahiriddin Muhammad Bobur
b) Abu Sulaymon Doroniy
c) Yahyo Sebak
d) Hakimshoh Qazviniiy
48. "Ey sabo" g`azalining taqte`si qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?
- a) -- V/V - V -/ V --
b) - V - -/ - V - -/ - V - / - V -
c) V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -
d) - V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -
49. "Meni men istagan" ga`azalining taqte`si qanday?
- a) -- V/V - V -/ V --
b) - V - -/ - V - -/ - V - / - V -
c) V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -
d) - V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -
50. "Har bir narsaning zangi bo`ladi, qalb nurining zangi esa, to`yib ovqatlanishdir". Ushbu jumla qaysi ijodkorga tegishli va qaysi asardan olingan?
- a) Hakimshoh Qazviniiy; Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul-futuvvat
b) Abdurahmon Jomiy; Nafahot ul-unsmin hazarot ul-quds
c) Alisher Navoiy; Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul-futuvvat
d) Abu Sulaymon Doroniy; Nasoyim ul- muhabbat min shamoyim ul-futuvvat
51. "Garchi oliy hazratga o`zidagi tab` quvvati va qobiliyati ko`pligi jihatidan har ikki nav, ya`ni turkiy va forsiy she`rlar muyassar bo`lsa-da, uning o`tkir ta`bi (ning moyilligi) forsiychadan ko`ra turkiychaga ortiqroq edi". Navoiy haqidagi ushbu fikr kim tomonidan aytilgan?
- a) Xondamir
b) Rashidiy
c) Abu Sulaymon Doroniy
d) Abuhoshim So`fiy

52. Alisher Navoiyning bir baytning o'zida "men" olmoshi uch marta, "istamoq" fe'li ikki marta, "suhbat" so'zi ikki marta, "etmas"

yordamchi fe'li ikki marta qo'llangan g'azali qaysi?

- a) "Ey sabo" g'azali
- b) "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur" g'azali
- c) "Meni men istagan" ga'azali
- d) "Kelmadi" radifli g'azali

53. "Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin, Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas". Baytdagi she'riy san'atlarni toping?

- a) Istiora, jam'u taqsim, tanosub
- b) Istiora, jam'u taqsim, talmeh
- c) Istiora, jam'u taqsim, ta'did
- d) Istiora, tardi aks, ta'did

54. "Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a Ayon ul zahr chashm aylab, nihon bu no'shxand etmas". Ushbu baytda jam'u taqsim san'ati qaysi so'zlar orqali yuzaga kelmoqda?

- a) bazmin va qatlim
- b) aylab va no'shxand etmas
- c) hur-u pari, ul va bu
- d) hur-u pari va zahr

55. Quyidagilardan ma'nosi noto'g'ri izohlangan so'zni toping:

- a) bebok-qo'rqmaydigan, hayiqmaydigan
- b) nazzora-qarash, nazar tashlash
- c) mubadda-badal
- d) zulf-soch, soch o'rini

56. "Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z, Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas". Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llangan?

- a) istiora
- b) talmeh
- c) tazod
- d) tasbe

57. Navoiyning qaysi g'azali bir qarashda oshiqning dil izhoriga oid tuyg'ular ifodasi aks etayotganday ko'rinsada, aslida, obyektiv voqelikka bo'lgan estetik munosabat ifodasi bosh o'rinda turadi?

- a) "Ey sabo" g'azali
- b) "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur" g'azali
- c) "Meni men istagan" ga'azali
- d) "Kelmadi" radifli g'azali

58. Navoiyning qaysi g'azalida ma'shuqaning oshiq uchun naqadar aziz va qadrli ekanligi obrazli tarzda aks etgan?

- a) "Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur" g'azali
- b) "Meni men istagan" ga'azali
- c) "Kelmadi" radifli g'azali
- d) "Ey sabo" g'azali

59. Berilganlardan to'g'ri ma'lumotni toping:

- a) Qit'aga aniq chegara qo'yilmagan
- b) Qit'aning eng kichik shakli bir baytdan iborat bo'ladi
- c) G'azal Navoiy lirikasida alohida mavqega ega bo'lgan janrdir
- d) Qit'a qofiyalanishi a:b:, d:a, e:a, f:a ko'rinishida bo'ladi

60. Navoiyning qaysi qit'asi ayrim bandalarning noshukurligi hamda behuda ta'magirligi haqida?

- a) "Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak"
- b) "Haq taolo in'omi-yu karami omi boride o'zgin nima tilagoning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi"
- c) "Ul bobdakim jahon ahli bevaforur va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur"
- d) "Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham"

61. "Minnat himmatni yo'q qiladi". Ushbu jumla kimga tegishli?

- a) Rashidiy
- b) Beruniy
- c) Ibn Sino
- d) Farobiy

62. Navoiyning komil inson haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritishi bilan e'tiborli bo'lgan qit'asi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) "Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak"
- b) "Haq taolo in'omi-yu karami omi boride o'zgin nima tilagoning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi"
- c) "Tavozu' yaxshi, ammo yaxshiroqdur Agar da'b etsa ani ahli davlat"
- d) "Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho Ki, o'tlar sochar qahri hangomida"

63. Alisher Navoiyning qaysi qit'asining mazmuni "oqil" odamlarga nisbatan bir chaqiriq, da'vat yo'sinda?

- a) "Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak"
- b) "Haq taolo in'omi-yu karami omi boride o'zgin nima tilagoning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi"
- c) "Ul bobdakim jahon ahli bevaforur va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur"
- d) "Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham"

64. Navoiyning qaysi qit'asida vafo va jafu so'zlari orqali tazod, Xito va xato so'zlari orqali tajnis yuzaga kelgan?

- a) "Ul bobdakim jahon ahli bevaforur va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur"
- b) "Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak"
- c) "Haq taolo in'omi-yu karami omi boride o'zgin nima tilagoning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi"
- d) "Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham"

65. Berilganlardan noto'g'risini toping:

- a) "Ul bobdakim jahon ahli bevaforur va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur" nomli qit'asida jahon ahli bilan ulfatchilikdan ko'ngil uzish kerakligi haqidagi xulosa jiddiy, qat'iy va shafqatsiz bir tus olgan
- b) Navoiy o'z she'rlarini "durri maknun" (yashirin dur) deb hisoblaydi
- c) Shoirming g'azallari besh baytdan kam emas

d) Shoirning ko`plab g`azallari to`qqiz ,o`n bir, o`n uch baytdan iborat.

66. "Ko`z bila qoshing yaxshi,qabog`ing yaxshi,
Yuz bila so`zing yaxshi,dudog`ing yaxshi,
Eng bila menging yaxshi,sadog`ing yaxshi.
Bir-birin ne deyin,boshdin ayog`ing yaxshi. "Ushbu she`r qaysi janrda yozilgan?

- a) qit`a
- b) ruboiy
- c) g`azal
- d) murabba

67. "Ko`z bila qoshing yaxshi,qabog`ing yaxshi,
Yuz bila so`zing yaxshi,dudog`ing yaxshi,
Eng bila menging yaxshi,sadog`ing yaxshi.
Bir-birin ne deyin,boshdin ayog`ing yaxshi. "Ushbu baytda qanday she`riy san`atlar qo`llangan?

- a) Tanosub,ta`did,tazod
- b) Tanosub,tardi aks,tazod
- c) Tanosub,talmeh,istiora
- d) Tanosub,laff va nashr,istiora

68. Tuyg`ular va fikrlarning yetukligi,tabiyligi,favqulodda go`zal va ta`sirchanligi,so`z ma`nolarining kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.Ushbu ta`rif qaysi janr haqida?

- a) qit`a
- b) ruboiy
- c) g`azal
- d) masnaviy

69. "Xazoyin ul-maoniy"da she`riy janrlarning necha xili mavjud?

- a) 8 xil
- b) 24 xil
- c) 20 xil
- d) 16 xil

70. Alisher Navoiyning qaysi asari tasavvuf g`oyalariga targ`ibiga bag`ishlangan?

- a) Nasoyim ul-muhabbat
- b) Majolis un-nafois
- c) Nazm ul-javohir
- d) Muhokamat ul-lug`atayn

71. "Farzand ato qullig`in chu odat qilg`ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg`ay".Ushbu ruboiy qaysi asardan olingan?

- a) Hayrat ul -abror
- b) Mahbub ul-qulub
- c) Nasoyim ul-muhabbat
- d) Nazm ul-javohir

72. Kimning qaysi asarida o`nta she`riy janrga tavsif beriladi?

- a) Alisher Navoiy"Nazm ul-javohir"
- b) Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziy"Funun al-balog`a"
- c) Abdurahmon Jomiy"Nafahot ul-unsmin hazarot ul-quds"
- d) Alisher Navoiy"Xazoyin ul-maoniy"

73. "Mabodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat "Xazoyin ul-maoniy"ni,hatto uning tarkibidagi bitta devonni yaratganda ham adabiyotimiz tarixidagi eng ulug` shoirlarimizdan biri bo`lib qola berar edi" degan fikri bildirgan ijodkor Navoiyning qaysi asrini tarjima qilgan?

- a) Nazm ul-javohir
- b) Mahbub ul-qulub
- c) Hayrat ul-abror
- d) Saddi Iskandariy

74. "Funun al-balog`a"asaridagi tavsif berilgan janrlar qaysilar?

- 1. qasida 2.masnaviy 3.murabba 4.g`azal 5.fard 6.qit`a
- 7.mustazod 8.ruboiy 9.tarje` 10.takibband 11.musammat
- 12.mutavval 13.muashshar
- a) 1,2,4,5,6,7,8,9,11,12,13
- b) 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13
- c) 1,2,3,5,6,7,12,13
- d) 1,2,4,5,6,7,8,9,11,12

75. "G`uribatda g`arib shodmon bo`lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo`lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg`a tikondek oshiyon bo`lmas emish".Ushbu she`r janrini aniqlang?

- a) fard
- b) ruboiy
- c) murabba
- d) g`azal

Muallif: HILOLA Abdazimova